

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA
MADANIYATLARARO
MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI
VA TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'Plami

2025-yil 27-may

BUXORO – 2025

3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishni mashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy xususiyati sifatida belgilanib, bu pedagogning pedagogik faoliyatini ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli insonparvarlik munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirishga tayyorligida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari. – Toshkent, 2021. -252 bet.
2. V.Suxomlinskiy. “Tarbiya haqida”. Toshkent.1977 yil.18-bet.
3. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
4. Eraliyeva D.O. Ta'limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.
5. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. –Челябинск, 2019. 147 с.
6. Пыrkova T.A. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.–Екатеринбург, 2018. -166с.
7. Юсупов А. Устные коммуникативные упражнения с использованием современных тех-нологий в изучении иностранных языков. //O'zbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik electron jurnal. №2/2017.
8. A.R.Soxibov .”Umumiy pedagogika”. Darslik. Qarshi.”Nasaf” 2023-yil. 22,0b.t 9. A.R.Soxibov .”Umumiy pedagogika”. O'quv qo'llanma. Qarshi. “Nasaf” 2023-yil. 22,0 b.t
10. A.R.Soxibov ”Pedagogik fikrlar taraqqiyoti”. Darslik. Qarshi. “Nasaf” 2023-yil. 22,0 b.t

TA'LIMDA KREATIV FIKRLASH VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZARURIY AHAMIYATI

N.R.Qandimova

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya Mazkur maqolada kreativlik, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatini rivojlantirishning zarurati, usullari va omillari, interfaol ta'limning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kompetensiya, ijodkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, component, kasbiy faoliyat, kreativ faoliyat, interfaol metodlar, innovatsiya.

Barchamizga ma'lumki, insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va shu kabi boshqa sohalarida barcha uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi, izlanishi va kashf etishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon ijod hisoblanadi. Shu o'rinda buyuk mutaffakkir Abu Nasr Farobiyning fikrlarini aytib o'tish joizdir: “Ijod- bilish jarayonida shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak”. Haqiqatdan ham, inson ijod qilish jarayonida izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi va shu asosda xulosaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini o'z tajribalarida sinab boradi.

Ijodning natijasi esa shaxsda kreativ kompetentlikning shakllanishi bilan namoyon bo'ladi. Kreativlik- shaxsning ijodkorlik, yaratuvchanlik fazilatlarini bilan bog'liq ko'nikmalar majmui

hisoblanib, insonning muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya va tadqiqotchilikni qamrab oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'lgan. u individning yangi tushunchani yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatlarini bildiradi. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: kreativlik (lot.ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi ijodkor) – insonning yangi g'oyalarni o'ylab topishga tayyorgarlik bosqichlarini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Barcha sohalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligi yosh avlodning har tomonlama barkamol, kreativ va tezkor bo'lishini talab qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchi egallayotgan bilimlarni o'zi qidirib topish, mustaqil o'rganib, tahlil qilish hattoki, xulosalarni ham o'zi keltirib chiqarishga o'rgatibgina qolmay, ularning ongiga singdirishga yordam beradi. Tahsil oluvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat olib borishlariga ko'maklashish ularning hayotda o'z o'rnini topishlari, darjalarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish shuningdek, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni o'qituvchilarga vazifa etib belgilaydi.

Interfaol ta'limda o'qituvchi bevosita o'quv faoliyatining faol ishtirokchisi sanalib, o'quvchi esa bu faoliyatning sub'ekti sifatida aks etadi. Bu borada, ta'lim berishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va undan kutilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Interfaol ta'limni amalda tatbiq etishning muhim usuli – interfaol o'qitish metodlaridir (1-rasm).

Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalar o'quvchida kreativ qobiliyatlarini



1-rasm. Interfaol metodlarni qo'llashning samaradorligi

shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ularda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zarurati mavjud (2-jadval). Buning uchun o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi erkin-ijodiy muhitni yaratish, o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatlariga soslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat. O'quv jarayoniga innovatsion metodlarni qo'shish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin;

- O'quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi.
- Axborotni tez izlash, tahlil qilish va saralash ko'nikmalari shakllanadi.

Kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar

USUL NOMI	TAVSIF	QO'LLASH USULI
Brainstorming(aqliy hujum)	Biror muammoni hal qilish yoki yangi g'oyalar toppish uchun jamoaviy muhokama usuli	Jamoa bilan ochiq fikr almashish, har qanday g'oyani baholamasdan qabul qilish
Mind mapping(aqliy xarita)	G'oyalarni grafik shaklda bog'lash orqali fikrlash jarayonini aniqlashtirish	Markaziy tushunchani yozib unga bog'liq fikrlarni tarmoqlashtirish
SCAMPER	Mavjud g'oyalarni o'zgartirish yoki yangicha ishlash uchun 7ta savol texnikasi	S -substitution (almashtirish) C -combining (birlashtirish) A -adapting (moslashtirish) M -modifying (o'zgartirish) P -putting to another use (boshqa maqsadda qo'llash) E -elimination (yo'q qilish) R -reversing (teskari qilish)
Rol o'ynash(role playing)	Muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish	Boshqa odamlar yoki narsalar o'rniga o'zini qo'yib ko'rish
Sinestetik tafkkur	Barcha sezgilarni ishga solib, g'oyalarni kashf qilish	Biror narsani his qilish, tasavvur qilish, ovoz yoki hid bilish bilan bog'lash
Kvant tafakkur	Har qanday cheklovni chetga surib, keng fikrlash	"Agar barcha imkoniyatlar mavjud bo'lsa nima qilardim" deb so'rash
Teskari fikrlash	Masalani oddiy bo'lmagan yo'ldan hal qilish	Muammoni teskari tomondan ko'rib chiqish

Zamonaviy dunyoda kreativlik quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir:

1. Muammolarni samarali hal qilish. Hayot va ish faoliyatida doimo muammolar paydo bo'ladi. Kreativ fikrlash orqali standart yondashuvlardan chiqib, muammolarni tez va o'ziga xos yo'llar bilan hal qilish mumkin.

2. Innovatsiyalar va rivojlanish. Yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar yaratishda kreativlik asosiy rol o'ynaydi. Kreativ insonlar mavjud bilimlar asosida yangilik kiritishga qodir bo'ladi.

3. Moslashuvchanlik va tezkor o'rganish. Tez o'zgarayotgan dunyoda yangi bilimlarni egallash va yangiliklarga moslashish zarur. Kreativ odamlar o'zgarishlarga tez moslashib, ulardan foyda olish yo'llarini topadilar.


4. Ta'lim va o'qitish jarayonini yaxshilash. O'qituvchilar uchun kreativlik darslarni qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O'quvchilar uchun kreativ tafakkur mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Raqobatbardoshlik va martaba imkoniyatlari. Ish beruvchilar kreativ va innovatsion fikrlaydigan xodimlarni qidirishadi. Kreativ odamlar o'z kasbiy sohasida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

6. Shaxsiy rivojlanish va hayot sifati. Kreativlik shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va hayotni mazmunli qiladi. Stress va qiyinchiliklarni yengish uchun ham kreativ yondashuv foydali bo'ladi.

Kreativlik – bu faqat san'atkor yoki dizaynerlarga kerak bo'lgan qobiliyat emas. U har qanday sohaga tegishli bo'lib, muammolarni hal qilish, o'zgarishlarga moslashish va hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli maktab ta'limida ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kreativ tafakkurni rivojlantirishga e'tibor berishi lozim. Zero, har qanday buyuk kelajakning poydevori yosh avlodning zimmasidadir.

Quyida keltirib o'tilgan mavzular o'quvchining kreativlik salohiyatini rivojlantiruvchi mavzular sanaladi. Biroq bu mavzularni oddiy emas, interfaol metodlar yordamida o'tilishi darsga qiziqishini oshirish, mavzuni chuqur mustahkamlash ko'nikmalarini beradi.

Mavzulari	Fanlar bilan integratsiyasi	Shakllantiruvchi kompetensiyalar	Metod
Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-huquqiy asosi	Falsafa	Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya(axloqiy sifat)	"Portfolio" metodi 
Tarbiya fanini o'qitish metodikasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari	Falsafa, etika	Ma'naviy-marifiy kompetensiya (estetik did)	"Interfaol ma'ruza" 
Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalari	Pedagogika Sotsiologiya	Ma'naviy-marifiy kompetensiya (tarixiy xabardorlik)	
Tarbiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi	Pedagogika 	Innovatsion va ijodiy kompetensiya (yangi g'oyalar yaratish)	"Muammoli ta'lim" (Problem –based learning) 
Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi.	Huquqshunoslik Sotsiologiya	Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya (jamiyatga moslashuv)	"Ven diagrammasi" 
Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi.	Geografiya Tarix		"Klaster" (tarmoq) metodi
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy	Sotsiologiya		

kompetensiyalarni shakllantirish (1-4 sinf tarbiya darsi)			
Bolaning shaxs sifatida kamol topishida oiladagi kitobxonlikning roli.	Adabiyot va san'at	Kommunikativ kompetensiya	“Kets stadi” (Case study) texnologiyasi
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsning ustuvor xususiyati sifatida(1-4 sinf tarbiya darsi).	Psixologiya	Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya (jamiyatga moslashuv, vatanparvarlik)	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish (1-4 sinf tarbiya darsi)	Sotsiologiya Pedagogika	Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya (jamiyatga moslashuv)	“Redfleksiya” (Reflection method)
Tarbiya ijtimoiy tarixiy zarurat sifatida	Falsafa Sotsiologiya Tarix	Ma'naviy-marifiy kompetensiya (tarixiy xabardorlik)	“Jigsaw” (Pazl metodi)
Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar	Pedagogika	Innovatsion va ijodiy kompetensiya (yangi g'oyalar yaratish, tanqidiy fikrlash)	

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot –ta'lim jarayoniga integrallashishga yo'naltirilgan yangicha ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos keladigan bir qator sezilarli yangilik va o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga jalb etilishi ta'lim usullari va o'quv jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallagan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dastavval, bu jarayon o'quvchilarni bosqichma-bosqich tayyorlash bosqichini o'z ichiga oladi(2-jadval)

2-jadval

O'quvchilarni kreativ faoliyatga tayyorgarlik darajalari

Darajalar	Ko'rsatgichlar
Shaxsiy -kreativ	Kreativ faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirish

Funksional-kreativ	Kreativ faoliyat zarur bo'lgan jismoniy va aqliy resurslardan foydalana olish qobiliyati
Shaxsiy faoliyatli-kreativ	O'ziga yuklatilgan muammoli topshiriqlarni samarali bajarishga imkon beradigan kreativ, shaxsiy fazilatlar va malakalarning yaxlit namoyon bo'lishi

Bugungi kunda informatsion texnologiyalar tez rivojlanib, har kuni ulkan hajmdagi axborot paydo bo'lmoqda. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun axborotni to'g'ri izlash, baholash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Axborot bilan ishlash kompetensiyalari nafaqat ta'limda, balki hayotning turli sohalarida ham muhim rol o'ynaydi. Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning zamonaviy dunyoga moslashuvchanligini oshiradi. O'quv jarayoniga innovatsion metodlarni qo'shish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin;

- O'quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi.
- Axborotni tez izlash, tahlil qilish va saralash ko'nikmalari shakllanadi.
- Jamoaviy va mustaqil o'rganish qobiliyatlari rivojlanadi.
- O'quvchilar raqamli texnologiyalar bilan ishlashni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr. <http://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni\ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.:TDPU,2015y.
4. Ibragimova G.N. "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish" \Monografiya. –T: "Fan va texnologiyalar",2016-y.
5. Raximov Z.T. "Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini oshirishda ta'limning faol va rivojlantiruvchi usullaridan foydalanish zarurati"\VestnikKGU. Berdaxa 2019-y. 49-b.
6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.ziynet.uz
9. www.Edu.uz

LENGSTON HYUZ IJODI MISOLIDA XORIJIY ADIBLAR ASARLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Norov Jamshid Nurulloyevich

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
BMTI akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi*

Annotatsiya Mazkur tezisda XX asrning mashhur amerikalik adibi Lengston Hyuz ijodi misolida xorijiy adabiyotdagi lingvokulturologik birliklarni aniqlash va ularni o'quvchilarga samarali o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Hyuz asarlarida afroamerikaliklar hayoti, madaniy merosi va ijtimoiy muammolari badiiy ifoda topgan bo'lib, ular orqali o'quvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish imkonini yaratiladi. Tezisdagi kontekstual tahlil, komparativ va interaktiv yondashuvlar, kross-kultural topshiriqlar va